

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**Texnikumlarni muvafaqqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim
muassasalarining bakalariyat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida
o'qishga qabul qilish**

60411700 - Logistika yo'nalishi uchun Logistika fanidan

DASTUR

Buxoro-2025

Tuzuvchi:



Sh.B. Boltayeva

Taqrizchilar:



Oripov M.A.- BuxDU, "Yashil iqtisodiyot va agrobiznes" kafedrası dotsenti, i.f.n



Hasanova G.J.- BDTU Iqtisodiyot kafedrası dostenti, iqtisod fanlari nomzodi.

H.R. Turobova- BuxDU, PhD, "Yashil iqtisodiyot va agrobiznes" kafedrası dotsenti

Kirish

Ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishida moddiy, moliyaviy va axborot resurslari oqimlarining ahamiyati katta. Ana shu moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari logistika fanining obyekti bo'lib hisoblanadi.

Logistika fani – moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarini joriy manba'idan to iste'mol sohasigacha bo'lgan harakatini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish, optimallashtirish, nazorat qilish va muvofiqlashtirish to'g'risidagi fandır. Moddiy va unga taaluqli bo'lgan boshqa barcha oqimlarning ro'y berishi, harakati, miqdoriy va sifat o'zgarishlarini logistika nuqtai nazaridan mikro yoki makro darajada o'rganish, tadqiq qilish va boshqarish tizimli yondashishni talab qiladi. Bunda yuqorida ta'kidlangan jarayonlar bir butun va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tizimning o'zaro uzviy bog'langan elementlari deb qaraladi. Moddiy oqimlar ta'minot, ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlarining turli bo'g'inlaridan o'tganda turlicha miqdoriy, tarkibiy va sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Logistika sohasidagi faoliyat ko'p qirralidir. Ularga tashish va, taqsimot jarayonlari, zahira va ombor xo'jaliklarini boshqarish, axborot tizimini tashkil qilish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarni boshqarish kabilar kiradi.

Logistikaning asosiy maqsadi ta'minot tizimidagi moddiy resurslarni optimallashtirish, ishlab chiqarish bo'g'inlarining xom ashyo, materiallar, detallar, yarim tayyor mahsulotlarga bo'lgan talabini samarali qondirish va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib berish uchun qilinadigan barcha harakatlarni hisobga olgan holda umumiy harajatlarni, kamaytirishdan iboratdir.

Logistikaing qo'llanilishi natijasida xom ashyo va tovar zahiralari minimallasadi, yetkazib beruvchilar va zahiralari optimal tarzda joylashadi, tovarlarning ishlab chiqarishdan iste'mol sohasigacha bo'lgan harakat vaqti qisqaradi, bularning barchasi esa pirovard natijada umumiy harajatlarning kamayishiga olib keladi.

ASOSIY QISM

Logistikaning asosiy holati va tamoyillari.

Logistika ob'ekti, mavzusi, asosiy tushunchalari. Logistikaning funksional yo'nalishlari va ularning xususiyatlari. Logistikani amaliyotga joriy etish sharoitlari. Logistikaning asosiy holati. Kibernetik nazariy tizimning umumiy uslubi asosida logistikadan foydalanish va takomillashtirish. Bozor ehtiyojini hisoblash. Mijozlarga

logistik xizmat ko'rsatishning optimal darajasi. Logistik jarayonlar monitoringida tizimli tahlildan foydalanish.

Logistik zanjirlar va operatsiyalar.

Logistik zanjir qatnashchilarining asosiy tarkibi va tuzilmasi. Logistik zanjirlarni shakllantirishda motivatsiya va shartlari. Logistik zanjir qatnashchilarining asosiy tamoyillari. Logistik operatsiyalar tasnifi. Texnologik va tijoriy operatsiyalar. Logistik operatsiyalarni amalga oshirish ketma-ketligi.

Logistik tizimlar.

Logistik tizimlarning mohiyati. Logistik tizimlarni tiplari va turlari. Logistik tizimlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy elementlar va omillarni tanlash usuli. Logistik tizimlarni ishlab chiqish. Logistik tizimlarni shakllantirishning asosiy xususiyatlari: butunli va bulinishli; elementlararo aloqalar mavjudligi; tashkiliy jihatlar; sinergetik samarasi. Makro-mikro logistik tizimlar.

Logistikada asosiy oqimlar. Moddiy oqimlar.

Moddiy oqimlarning tasnifi va mohiyati. Moddiy oqimlarning paydo bo'lishi. Moddiy oqimlarning tarkibi va tuzilmasi. Moddiy oqimlarning klass tasnifi. Moddiy oqimlarning hajmiy va o'lchov parametrlari. Qaytuvchi moddiy oqimlar. Moddiy oqimlarni boshqarish usullari.

Logistik axborot tizim va texnologiyalari. Axborot oqimi.

Axborot oqimlarining tavsifi va mohiyati. Axborot oqimlarining paydo bo'lishi. Axborot oqimlarining tasnifi. Axborot oqimlarining o'lchami va o'lchov birligi. To'g'ri va qarma-qarshi axborot oqimlari. Logistik axborot tizimini tashkil etish tamoyillari. Lokal va regional logistik axborot oqimlar. Logistik axborotga quyiladigan talablar. Logistik axborot texnologiyalari.

Servis va iqtisodiy oqimlar.

Logistik servis va uning darajasining asosiy tushunchalari. Logistik servisning sifat mezonlari. Logistik servis infrastrukturasi. Logistik servis xizmatlari. Logistik servis infrastrukturasi. Logistikada moddiy oqimlar tushunchasi va mohiyati. Moddiy oqimlar tasnifi.

Logistikada marketing izlanish

Logistika sohasida marketing tadqiqotlarining metodlari va usullari. Ekspert baholash usuli, so'rov usuli, so'rovnomalar, shaxsiy aloqalar. Bozorni o'rganish jarayonida to'plangan ma'lumotlarga bo'lgan talab. Logistik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish. Logistika bo'yicha qaror qabul qilish uchun ma'lumot tayyorlash.

Xarid logistikasi

Xarid logistikasining maqsad va vazifalari. Korxonaning xarid qilish xizmatlari. Etkazib beruvchilar bozorini tahlil qilish. Bozorni tahlil qilish uchun ma'lumot tayyorlash. Sotuvchi bozorini tahlil qilish bosqichlari. Etkazib beruvchilar bozorini tanlash mezonlari. Etkazib beruvchilar bozorining ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Etkazib beruvchilar reytingini baholash. Maqbul etkazib beruvchilarni tanlash va xom ashyo etkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish.

Zahira logistikasi

Zahira tushunchasi va zahiralarni to'plash sabablari. Moddiy zahiralarni klassifikatsiyasi. Zahiralarni asosiy nazorat tizimlari. 0 - tizimidagi maqbul buyurtma hajmini aniqlash. R-modelidagi buyurtmalar orasidagi vaqt oralig'ini hisoblash va

buyurtma hajmini aniqlash. Zahiralarni ratsionlash usullari. «O'z vaqtida» zahiralarni minimallashtirish.

Ishlab chiqarish logistikasi

Ishlab chiqarish logistikasining mohiyati va maqsadlari. Ishlab chiqarish logistikasining vazifalari. Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyasi. Ishlab chiqarish tizimlarining sifati va miqdoriy moslashuvchanligi. Materiallar oqimini boshqarish tizimlari «Itaruvchi» tizimi. «Tortuvchi» boshqarish tizimlari. «O'z vaqtida» logistik tizimi. «Kanban» mikrologistik tizimi. «Talabga e'tibor» va «o'zi ishlab chiqarish» logistik konsepsiyasi.

Taqsimot logistikasi

Taqsimotning nazariy asoslari. Taqsimot logistikasining maqsadi va vazifalari. Logistikada taqsimot kanallari. Taqsimot kanallari strukturasi. To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita tarqatish kanallari. Tarqatish tarmoqlarini yaratish. Tarqatish tarmoqlarida tarqatish markazlari.

Logistika markazlari va terminalda etkazib berish tizimlari

Logistika markazining tavsifi va tushunchasi. Logistika markazining tarkibi va tuzilishi. Logistika markazlarining asosiy va yordamchi bo'linmalari. Logistika markazlarining turlari. Logistika markazlarini vazifalari. Logistika markazlarda texnologik va tijorat jarayonlari. Yig'ish-tarqatish terminallari va ularning vazifalari. YUklarni etkazib berishning terminal tizimlari.

Transport xizmati uchun logistika tizimlari

Transport xizmatlari. Transport xizmatlari bozorining shakllanishi. Transport xizmatlari doirasining kengayishining shartlari va sabablari. Transport xizmatlarini taqdim etish xususiyatlari. Transport xizmatlari tushunchasi. Transport xizmatlari tarkibi. Transport xizmatlari tasnifi. Transport xizmatlarida ko'llaniladigan qoidalar va me'yoriy hujjatlar. Transport xizmatlari sifati va unga ko'yiladigan talablar. Transport xizmatlarini segmentlash jarayoni bosqichlari. Transport xizmat ko'rsatish sifatini muhim parametrlari.

Transport-ishlab chiqarish masalarini echish usullari

Murakkab iqtisodiy tizim sifatida transportning xususiyatlari. Ishlab chiqarish - transport - taqsimlash - yig'ish yagona tizimini yaratish. «Yagona texnologik jarayon» tushunchasi. Transport va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish uchun logistika markazlarini yaratish zaruriyati. Etkazib berish turlari va tashishning texnologik sxemalari. Tizimni tashkil etuvchi elementlar. YUnimodal tashuvlar. Multimodal va intermodal tashuvlar. Avtotransportda yuklarni tashish texnologik sxemalari. Aralash tashuvlarda asosiy tamoyillar.

Transportning turli shakllaridagi transport va logistika tizimlarining xususiyatlari

Asosiy omillar. Transportning har xil turlari bilan tashishni tashkil etishga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Umumiy iqtisodiy omillar. O'ziga xos transport omillari. Turli transport vositalari bilan tashishni taqqoslash uchun ishlatiladigan asosiy ko'rsatkichlar. Transportning turli xil turlarida transport-logistika tizimlarining asosiy texnik-iqtisodiy xususiyatlari: temir yul transporti, suv transporti, avtomobil transporti, havo transporti, quvur transporti. Transport turlaridan maqsadga muvofiq foydalanish ko'lam.

Idishlar va qadoqlarning logistik jihatlarini

Ta'minot zanjirida idishlar va qadoqlarni tanlashga kompleks yondashuv. Qadoqlashning tannarxi va logistika tizimining samaradorligiga ta'siri. Qadoqlashning xarajatlar darajasiga ta'sirining sabablari. Qadoqlashning asosiy xususiyatlari. Iste'molchilar uchun qadoqlash. Sanoat qadoqlari. Sanoat qadoqlashini rivojlantirishga bo'lgan talab. Mahsulotlarni shikastlanishdan himoya qilish. O'rashga ta'sir qiluvchi omillar: atrof-muhit, iqlim muhit omillari, harorat, namlik va boshqalar. Yuklarni qayta ishlashda qadoqlash samaradorligi. Konteynerlash. Qadoqlash materiallari va idishlar.

Yuklarni etkazib berish tizimini loyihalash tamoyillari

Yularni etkazib berish jarayonining xususiyatlari. Yuklarni etkazib berish tizimini loyihalash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar. Mijozlarga yuklarni etkazib berish tizimiga ko'yiladigan talablar. Yuklarni etkazib berish tizimining sifat darajasini baholash uchun parametrlar: narx, ishonchlik, o'z vaqtida, xavfsizlik, xavf, muvofiqlik, imidj, to'liq ma'lumotlar.

Yo'lovchilar tashish texnologiyasida logistik yondashuvning asosiy qoidalar

Yuk va yo'lovchi tashish o'rtasidagi asosiy farqlar. Yo'lovchi xarakatlanish ob'ekti sifatida. Yo'lovchilarni tashish uchun transport xizmatlari bozorini segmentatsiyalash. Yo'lovchi transporti shahar infratuzilmasining elementi sifatida. Yo'lovchilarni tashish xizmatlarining holatini tasniflash. SHahar aholisi uchun transport xizmatlari tizimining tarkibi, shahar yo'lovchi tashish transportining ijtimoiy va logistik tizimlarining o'zaro ta'siri. SHahar yo'lovchi transportining ishlashi uchun logistika texnologiyalari.

Yo'lovchi transport tizimlarining mintaqaviy logistikasi

Jamoat transportining makrologik tizimlari. Jamoat transportining mintaqaviy logistika tizimini shakllantirishga ta'sir qiluvchi elementlar. Mintaqaviy jamoat transporti tizimining asosiy vazifalari. Tizimlarning shakllanishining fundamental xususiyatlari. Makro-logistik jamoat transporti tizimini yaratish bosqichlari. Jamoat transporti tizimining holati va faoliyatining xususiyatlari. Yo'lovchi tashish transporti korxonalarini boshqarish. Tashkiliy tuzilmani optimallashtirish.

Shahar yo'lovchi tashish transportida logistika texnologiyalari

Shahar yo'lovchi tashish transporti xizmatlariga talab omillari: boshqaruv tizimidan ta'sirlanish imkoniyati, harakatlar vaqti, aholi harakatchanligi. Tashuvchilarning tashkiliy, texnologik va tarif siyosati. SHahar yo'lovchi tashish transporti operatorlari. Tashuvchilarning o'zaro aloqa modellari va shaharni boshqarish xizmatlari. Transport ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari tamoyillari. SHahar yo'lovchi tashish transportida kelishuv zonallari.

Transport logistikasi tizimini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash

Jamoat transporti yo'lovchilar tizimini tartibga solish. SHahar yo'lovchi tashish transportini davlat tomonidan tartibga solishga konseptual yondashuv. SHahar yo'lovchi tashish transportini davlat tomonidan tartibga solish asoslari. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yo'nalishi va mumkin bo'lgan shakllari.

Logistika xarajatlari va logistika samaradorligi

Logistika xarajatlari. Xarajatlarni tasniflash: buyurtmalarni qayta ishlash, mahsulot zahiralari, ombor faoliyati va boshqa turdagi xarajatlar. Logistika samaradorligi.

Tavsiya qilingan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. O.Dadaboyev. Logistika. O'quv qo'llanma. -T:- "Iqtisod-Moliya" 2007 yil.
2. D.M.Umarova, M.A.Bo'ronova, Logistika. T-2016.
3. Tairova M.M, Abdulloev, A.J, Askarov N.N, Davlatov S.S. Agrologistika. Darslik. Durdona nashriyoti. Buxoro-2021y.
4. Sh.B.Boltayeva. Logistikada boshqaruv jarayonlari. O'quv qo'llanma. Buxoro : "INNOVATIVEPRINT BUKHARA" MCHJning Innovatsiya nashriyoti, 2025. - 200 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PK-5647-sonli qarori bilan qabul qilingan "Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni.
2. Tairova M.M. Logistika. Uslubiy qo'llanma. Buxoro Davlat universiteti, Buxoro, 2020, 120 bet.
3. Albekov A.U., Mitko O.A. Kommercheskaya logistika. Rostov-na Donu. Feniks. 2012.
4. Sergeev V.N. Logistika i biznes. Uchebnik. INFRA-M.: 2015
5. Kirshena M.V. Kommercheskaya logistika M.: TSentr ekonomiki i marketinga, 2011.

Internet saytlari

1. www.economics.ru
2. www.ved.ru
3. www.ser.uz
4. www.uza.uz
5. www.Lex.uz
6. www.ziynet.uz

IKKINCHI VA UNDA KEYINGI TA'LIM OLIH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolnig javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abiturientning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash balllari
A) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qabul qilsa, o'z fikrini to'liq, ravon qila olsa,	22-25

savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	
B) berilgan savolni etarli darajada bilsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzvisidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amliy jihatlarini etarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
D) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa	14-18
E) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.